

SHARQ VA G'ARB FALSAFASI. MADANIYATLARARO QARASHLAR

Durdimurodov Asilbek Sobirjonovich¹

Umarova Farida Saidikramovna²

Elmurotova Dilnoza Baxtiyorovna³

1-son davolash fakulteti 110''A''guruh talabasi¹, dotsent^{2,3}

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafaning mohiyatini Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari orqali tahlil qilamiz. Falsafa insoniyatning eng qadimiy va muhim intilishlaridan biridir. U bizga dunyoni tushunishga va o'z o'rnimizni topishga yordam beradi. Sharq falsafasida intuitiv va ma'naviy yondashuvlar ustun bo'lgan, G'arbda esa asosan mantiqiy va ratsional tafakkur ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Sharq falsafasi, G'arb falsafasi, Dunyoqarash, Metafizika, Zardushtiylik, Buddaviylik, Konfutsiychilik, Sokrat, Platon, Aristotel.

Falsafa — inson tafakkurining mohiyatini anglash va asosiy tushunchalarni tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan fanning bir ko'rinishidir. Falsafa har bir sivilizatsiyaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va bilimga munosabati orqali mazkur jamiyatning madaniy o'ziga xosligini aks ettiradi. Shu sababli ham har bir mintaqaviy falsafiy maktab nafaqat abstrakt tafakkurning mahsuli, balki tarixiy-madaniy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismidir.

Sharq va G'arb falsafasi inson tafakkurida shakllangan ikki asosiy qarashlar tizimi bo'lib, ular har biri o'ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitda shakllanib, borliq hamda inson hayotiga turlicha yondashuvni ifoda etadi. Sharq falsafasi ko'proq g'oyaviy-ruhiy, intuitiv va yaxlit tafakkurga tayanuvchi yondashuvlarni ilgari surgan bo'lsa, G'arb falsafasi analitik tafakkur, mantiqiy izchillik va individning mustaqil fikrlash qobiliyatiga asoslangan yondashuvlarni ilgari surgan. Mazkur ikki qarashlar o'rtasidagi farqlar nafaqat nazariy, balki amaliy hayotda ham ko'zga tashlanadi.

XXI asrda globallashuv jarayonlari kuchayib, madaniyatlararo muloqot kengaygan sari, turli madaniy-falsafiy tizimlarning o'zaro ta'siri va uyg'unlashuvi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat, ayniqsa, Sharq va G'arb o'rtasidagi tarixiy falsafiy qarashlarni qayta tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi zamon muammolarining aksariyati, jumladan, ekologik inqiroz, axloqiy dezorientatsiya, texnologik asoratlar, shuningdek, madaniy identiklik inqirozi aynan dunyoqarashlar va qadriyatlar to'qnashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, Sharq va G'arb falsafasi o'rtasidagi farqlarni, ularning o'zaro ta'sirini va zamonaviy kontekstdagi ahamiyatini o'rganish falsafa fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada Sharq va G'arb falsafasining tarixiy ildizlari, ularning asosiy kontseptual yondashuvlari, o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, shuningdek, madaniyatlararo qarashlar orqali shakllangan dunyoqarash tizimlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — ikki sivilizatsiyaning falsafiy merosini solishtirish asosida zamonaviy tafakkur uchun muhim bo'lgan universal qadriyatlarni aniqlashga xizmat qilishdan iborat.

Sharq xalqlari qadimdan boy madaniyat va tafakkur tarixi, o'ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlari hamda aqliy-ma'naviy merosi bilan ajralib turadi. Sharq falsafasining shakllanishi, avvalo, qadimgi sivilizatsiyalarning — Bobil, Misr, Hind, Xitoy va Markaziy Osiyo kabi yirik madaniy markazlarning vujudga kelishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu hududlarda shakllangan ilk falsafiy qarashlar jamiyat hayotining diniy, axloqiy, siyosiy va ijtimoiy tamoyillarini belgilab bergan. Dastlabki falsafiy tafakkur namunalari mifologik tasavvurlar shaklida namoyon bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik ular tobora umumlashgan g'oyaviy tizimga aylana bordi.[1]

Sharq sivilizatsiyalarida falsafa ko'proq amaliy, hayotiy masalalarga javob topishga, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga, axloqiy poklik, adolat, ezgulik, insof va mehnat kabi qadriyatlarni targ'ib qilishga qaratilgan. Falsafa bu yerda sof nazariy tafakkur emas, balki insoniy mukammallikka erishish vositasi sifatida shakllangan. Masalan, qadimgi Hind falsafasi — Vedalar, Upanishadlar va boshqa diniy-falsafiy matnlar orqali olamning birlikda mujassamligini, insonning koinot bilan uyg'unligini ifoda etadi. Buddizm va jaynizm maktablari esa ruhiy poklanish, istaklardan voz kechish, ahimsa (zo'ravonlik qilmaslik) tamoyillarini ilgari surgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida esa Konfutsiychilik, Daoizm va Mohizm kabi oqimlar asosiy o'rin tutadi. Bu oqimlar jamiyatdagi ijtimoiy tartib, axloqiy me'yorlar, ta'lim-tarbiya, rahbar va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar, insonning ichki dunyosini takomillashtirish kabi masalalarga e'tibor qaratgan. Ayniqsa, Konfutsiy ta'limoti Sharq jamiyatlarining siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Bobil va Misrda esa falsafa astronomiya, matematika va mifologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ilohlar va tabiat hodisalari o'rtasidagi uyg'unlik, inson qismati, hayot va o'lim masalalari markaziy o'rin egallagan.

Umuman olganda, Sharq sivilizatsiyalarida shakllangan falsafiy qarashlar insonni kosmosning ajralmas qismi sifatida ko'rgan, uni o'zini anglash va takomillashtirish sari yo'naltirgan. Bu qarashlar keyingi davrlarda ham Sharq xalqlarining dunyoqarashi, madaniyati va ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan.

Sharq falsafasi tarix davomida jamiyatning turli sohalariga axloqdan tortib siyosatgacha sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu maktablar doirasida shakllangan g'oyalar insoniyat hayotini yaxshilash, ijtimoiy tartibni mustahkamlash va shaxsiy kamolot sari

yo'naltirishga qaratilgan. Sharq tafakkurining asosiy diqqat markazida inson bor. U doimo o'zini anglash, ruhiy poklanish, tabiat bilan uyg'unlikda yashash va jamiyatdagi o'rnini topish yo'lida izlanishga undaladi.

Konfutsiy ta'limotida insonning ichki axloqiy sifatlari — burch, halollik, fidoyilik, ota-onaga hurmat va ijtimoiy tartibga rioya qilish muhim o'rin egallaydi. Konfutsiy “Inson o'zini tarbiyalashi bilan jamiyatni isloh qiladi”, degan g'oyani ilgari suradi. Bu ta'limot Xitoy, Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlarning siyosiy tuzilishi va ma'naviy hayotiga yuz yillar davomida asos bo'lib xizmat qilgan.

Hind falsafasida esa inson va koinot o'rtasidagi uyg'unlik muhim g'oya sifatida qaraladi. Vedalar, Upanishadlar, Bhagavad Gitada keltirilgan tamoyillar ongning tozaligi, karmaga ishonch, reinkarnatsiya va mukammallikka erishish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Buddizmda esa insonning azob-uqubatdan qutulishi uchun to'rt haqiqatga amal qilish, ya'ni hayotning azobli ekanligini tan olish, azob sabablarini tushunish, azobdan qutulish yo'lini izlash va bu yo'lni ongli yurish orqali bosib o'tish kerakligi ta'kidlanadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari, jumladan, Zardusht, Avesto ta'limoti vakillari, Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi allomalar ham falsafa va amaliy hayot o'rtasidagi uzviylikni chuqur anglaganlar. Ularning qarashlarida ilm-fan, axloq, din, davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyoti bir-biriga bog'liq tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, Zardushtiylikda insonning axloqiy tanlovi orqali yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilikka javob topish muhim o'rin egallaydi. Naqshbandiylik tariqatida esa “Dil ba yoru, dast ba kor” — ya'ni qalb Allohda, qo'l mehnatda bo'lishi kerakligi — insonni har ikki dunyo uchun mas'uliyatli yashashga undaydi.

Shunday qilib, Sharq falsafasining asosiy g'oyalari axloqiy yetuklik, jamiyatga xizmat qilish, tabiat bilan uyg'unlik, ruhiy poklik, adolat va ilmga intilish tarixiy rivojlanish davomida nafaqat nazariy asos bo'lib, balki turmush tarzini belgilovchi amaliy hayot mezonlariga aylangan. Bu g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki globallashuv sharoitida yangi ma'naviy asos sifatida qayta baholanmoqda.[3]

Antik davr G'arb falsafasi. G'arb falsafasining ilk shakllari qadimgi Yunoniston davrida shakllana boshlagan. Eramizdan avvalgi VI asrda Milet maktabi vakillari – Fales, Anaksimandr va Anaksimen – tabiat hodisalarining asosiy manbaini moddi bir unsurda ko'rishga harakat qilishgan. Fales uchun bu suv, Anaksimandr uchun cheksiz “apeyron”, Anaksimen uchun esa havo bo'lgan. Ular tabiat qonuniyatlarini ilohiy kuchlardan mustaqil tarzda tushuntirishga intildilar, bu esa G'arbda materialistik tafakkurning shakllanishiga asos bo'ldi. Bu davrda falsafa inson bilimlarining umumiy ifodasi sifatida ko'rilgan bo'lib, tabiat, matematika,

astronomiya, etika kabi sohalarni birlashtirgan. Pifagor va uning maktabi esa falsafaga idealistik yondashuv olib keldi. Ular borliqning asosini raqamlar, ya'ni miqdoriy va muvozanatli tartibda ko'rdilar.

Afina maktabi. Keyingi bosqichda G'arb falsafasining diqqat markazi tabiatdan jamiyat va inson muammolariga o'tdi. Bu o'zgarishda Sokrat muhim rol o'ynagan. U insonning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlarini – adolat, ezgulik, mardlik – haqida fikr yuritdi. Sokrat tajribaga emas, tushunchalar tahliliga asoslangan bilishga urg'u berdi. Uning metodi mayevtika insonning ichki fikrini ochishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy falsafiy so'roq metodlariga zamin yaratdi. Sokratning shogirdi Platon idealistik qarashlarni chuqurlashtirib, borliqning mohiyatini g'oyalar dunyosida ko'radi. Unga ko'ra, sezgi orqali idrok qilinadigan dunyo — bu g'oyalar dunyosining soyasidir. Bilim esa inson ruhining ilgari bilganlarini “eslashi”dir. Platon “ideal davlat” g'oyasini ilgari surib, jamiyatni aqliy, jasoratli va itoatkor tabaqalarga bo'ldi. Aristotel esa Platonning idealistik qarashlarini tanqid qilib, borliqni real ob'ektlar va ular harakatidan izlashga harakat qildi. U fanlar tasnifini yaratgan, falsafani umumiy borliq haqidagi fan sifatida belgilagan. Uning fikricha, materiya passiv asos, shakl esa faol boshlang'ichdir. Aristotel harakatni o'zgarishning manbai deb bilgan bo'lsa-da, uni buyumlardagi ichki ziddiyatlarda emas, tashqi harakatlantiruvchi kuchlarda izlagan.

Sofistlar va falsafiy metodologiya. Antik davrda **sofistlar** ham muhim o'rin tutgan. Ular bilishning nisbiyligi, muhokama san'ati va mantiqiy fikrlash metodlarini targ'ib qilishgan. Ularning faoliyati Sokrat va Platon kabi faylasuflarda tanqidga uchasada, ular G'arb falsafasida metodologik fikr yuritish madaniyatini rivojlantirdi.[2]

Dialektika va metafizika: Geraklit falsafasida dialektik tafakkur asoslari yaqqol ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, borliq — doimiy o'zgarishda bo'lgan jarayon bo'lib, barcha hodisalar qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadi. “Ayni daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi” degan mashhur ibora o'zgarish va vaqtning o'tkinchi tabiatini ifodalaydi. Geraklit uchun olov — borliqning asosiy elementi bo'lib, u harakat, ziddiyat va birlikni ramziy ifodalagan.

O'rta asr G'arb falsafasi. Xristianlikning tarqalishi bilan G'arb falsafasi **teotsentrik** (xudoni markazga qo'ygan) xarakter kasb etdi. Bu davrda Xudo va u yaratgan borliq falsafiy tahlilning asosiy mavzusiga aylandi. O'rta asrlarda falsafa ko'proq ilohiyot bilan bog'lanib ketdi. Aql bilan vahiy, din va ilm o'rtasidagi munosabatlar asosiy masalalardan bo'ldi.

Uyg'onish va Yangi davr falsafasi. Uyg'onish davrida inson va san'at markazga chiqdi. Falsafiy e'tibor insonning qudrati, erkin tafakkuri va go'zallikka qaratildi. XVII–XVIII asrlarda esa, ya'ni Yangi davrda, falsafa tabiat fanlari bilan uzviy bog'landi. Bilish nazariyasi, ilmiy metod va tajriba falsafaning markaziga aylandi. Bu bosqichda Rene Dekart, Frensis Bekon, Jon Lokk, Spinoza va Leynits kabi

faylasuflar ilmiy asoslangan bilish usullarini ishlab chiqishdi. Keyinchalik I. Kant va G. Hegel falsafani yuqori darajadagi mantiqiy va tizimli bilimga aylantirdi. Hegel ayniqsa dialektik metodni ongli ravishda asoslab berdi va uni tarixiy harakatning negiziga qo'ydi.

Xulosa. Sharq va G'arb falsafasi bir-biridan farqli tarixiy, madaniy va dunyoqarash asoslarida shakllangan bo'lsa-da, ularning har ikkalasi ham inson tafakkurining yuksalishida, bilim va ma'naviyatning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. G'arb falsafasi tabiat va inson ongini tahlil qilishda mantiqiy izchillik, metodologik yondashuv va ilmiy asoslarga tayangan bo'lsa, Sharq falsafasi axloq, ruhiy kamolot va jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlovchi g'oyalarni ilgari surgan. G'arbda bilish nazariyasi va dialektik tafakkur rivojlansa, Sharqda hayotiy tajriba, hikmat va axloqiy mukammallik yetakchi o'rinni egallagan. Bugungi global dunyoda bu ikki falsafiy an'ananing o'zaro uyg'unlashuvi insoniyat uchun yanada chuqurroq anglash, madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Sharq va G'arb falsafasining chuqur tahlili bizga nafaqat tarixiy jarayonlarni tushunishda, balki zamonviy muammolarga yondashishda ham keng fikr yuritish imkonini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshmatov Sh., Turaev A. Falsafa tarixi. – T.: O'qituvchi, 2018.
2. Nazarov Q. Falsafiy ta'limotlar tarixi. – T.: Universitet, 2020.
3. N.Mamatov, A.Hojiboev, Sh.Jo'raev Sharq va g'arb falsafasi toshkent-2005
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sharq_falsafasi
5. https://uzpedia.uz/pedia/sharq_falsafasi
6. Элмуротова Д.Б., Элмуратов Э.Б. Исследование и совершенствование техники и технологии по освоению скважин в сложных горно-геологических условиях на месторождениях Республики Узбекистан // Лучшие интеллектуальные исследования, Ч-13, Т.5, Январь-2024, С.11-23, Россия. <http://web-journal.ru/index.php/journal/issue/view/89>
7. Elmurotova D.B., Sayfullayeva D.I., Isroilova Sh.A. Terms of medical information system, World Bulletin of Public Health (WBPH), V.34, May, P.91-92, 2024 ISSN: 2749-3644, Berlin. <https://www.scholarexpress.net>
8. Elmurotova D.B, Majlimov F.B., Zuparov I.B., Kayumova K.S., Xudoyberdiyev B.A. A modern approach to hand hygiene in medicine // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), V.5 N.05, May 2024 ISSN: 2660-5589, P.51-53, Spain. <https://www.scholarzest.com>
9. Elmurotova D., Arzikulov F., Egamov S., Isroilov U. Organization of direct memory access // Intent Research Scientific Journal-(IRSJ), ISSN (E): 2980-4612, V.3, Is.10, October – 2024, P. 31-38., Philippines, <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/345>

10. Elmurotova D., Arzikulov F., Izzatullayev I., Olimov A., Abdurahmonov J. The role of remote diagnostics in medicine // World Bulletin of Public Health (WBPH), V.39, October 2024, ISSN:2749-3644, P.102-105. Germany, <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/4664>
11. Elmurotova D., Fayziyeva N.A., Urmanbekova D.S., Bozorov E.H. Implementation of the method of teaching x-ray therapy in higher educational institutions // **Web of Teachers: Inderscience Research**, V.2, Issue 10, October-2024, ISSN (E):2938-379X, P.18-23. Spain. <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1868>
12. Elmurotova D.B., Esanov Sh.Sh., Abduraxmonov S.A., Ulug'berdiyev A.Sh., Umarov J.S. Medical device reliability and measuring instrument specifications // Eurasian Journal of Engineering and Technology, EJET, V.34, October-7, 2024, ISSN: (E) 2795-7640, P.10-13, Belgium. <https://geniusjournals.org/index.php/ejet>
13. Shodiev A.A., Mussaeva M.A., Elmurotova D.B. Magnetic resistance and mobility of carriers of HTSC – YBCO tapes irradiated with 5 MeV electrons // Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics, EJPCM, V.35, October-26, 2024, ISSN: 2795-7667, P.25-33, Belgium. <https://geniusjournals.org/index.php/ejpcm/article/view/6393>
14. Elmurotova D.B., Fayziyeva N.A., Odilova N.J. Properties of electron and neutron therapy // Web of Medicine: Journal of medicine, practice and nursing, V.2, Issue 10, October-2024, ISSN (E): 2938-3765, P.137-141, Spain.
15. Elmurotova D.B., Yoqubboyeva E.Z., Orifqulova M.F., Imanova L.N. Application of computer technologies in medicine // Western European Journal of Medicine and Medical Science, V.2, Issue 11, ISSN (E): 2942-1918, November-2024, P.1-12. Germany. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/3>